



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



2. Ahmadova.U.Perifraza atamasi va uning nomlashdagi o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science. Scientific Journal Impact Factor. Volum:8. 432–442-b.
3. Dadaboyev.H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. G.Lakoff, M.Johnson. Metaphor we live by. Chicago – University of Chicago Press. 1980.
5. Hojiyev.A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 1985.
6. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
7. O'zME.Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
8. <https://pres.uchicago.edu>
9. <https://bibliotekanauki.pl>
10. <https://www.poised.com>
11. <https://www.grammarly.com>

OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI

Sharipova Xumora Zayniddinovna

Alisher Navoiynomidagi ToshDO'TAU magistranti

sharipovaxumora0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada olmosh so'z turkumi pragmatik yondashuv asosida tahvil etilgan bo'lib, ularning kontekstda qanday semantik va kommunikativ vazifada kelishi o'rjaniladi. Ishda turli kontekslarda olmoshlarning qo'llanishiga :r misollar asosida ularning funksional xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mavzuda olmoshlarning zamonaviy adabiy til va og'zaki nutqdagi qo'llanilishiga oid misollar orqali ularning stilistik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: pragmatika, kontekst, olmosh, kommunikativ vaziyat, til birlklari, lingvistik muhit.

Аннотация. В данной статье местоимения рассматриваются с прагматической точки зрения, изучается их семантическая и коммуникативная функция в контексте. На основе примеров использования местоимений в различных контекстах раскрываются их функциональные особенности. Также в работе приведены примеры из современного литературного языка и устной речи, демонстрирующие стилистические возможности местоимений.

Ключевые слова: прагматика, контекст, местоимение, коммуникативная ситуация, языковые единицы, лингвистическая среда.

Abstract. In this article, pronouns are analyzed from a pragmatic perspective, focusing on their semantic and communicative functions in context. The functional characteristics of pronouns are explored through examples of their use in various contexts. Additionally, the article presents examples from modern literary language and spoken discourse to illustrate the stylistic potential of pronouns.

Keywords: pragmatics, context, pronoun, communicative situation, language units, linguistic environment.

Tilshunoslikda olmoshlar shaxs, predmet yoki belgilarning nomini bevosita aytmasdan bildiruvchi so'zlar sifatida grammatik jihatdan o'rjanilgan bo'lsa-da, biroq ularning kontekstga bog'liq semantik va kommunikativ funksiyalari, xususan, pragmatik yondashuv :rasida olib boriladigan tahlillari hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Morfopraktika lingvistik pragmatikaning bir sohasi bo'lib, olmoshlarning pragmatik xususiyatlari aynan ushbu sohada o'rganiladi. Ma'lumki, tilshunoslikka oid nazariy adabiyotlarda olmosh so'z turkumi xususida boshqa so'z turkumlariga nisbatan noan'anaviy lisoniy qarashlar mavjud. Bunday qarashlar, albatta, olmosh turkumiga xos so'zlarning lingvistik tabiatiga bog'liq holda shakllandi. "Olmosh predmet yoki belgini konkret ko'rsatib bermaydi. Olmoshlarning qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi grammatik bog'langan nutq jarayonida konkretlashadi", "Olmoshning ma'nosi noaniqroq, umumiyroq bo'ladi. Olmoshlar predmet, uning belgisi va miqdorini bildirish uchun xizmat qiladi. Olmoshning qaysi so'z turkumi o'rnida kelganligi ko'pincha kontekstdan, oldingi gaplardan anglashiladi". Olmoshning konkret ma'nosi kontekst, situatsiya nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi [Faxri Kamol, 1957:385]. Olmosh xususidagi bu talqindan shuni aniq sezish mumkinki, boshqa so'z turkumi kabi o'zining konkret ma'nosiga ega emas. Faqat nutqiy vaziyat va kontekst qurshovida, olmosh turkumiga xos so'zlarning ma'nosi konkretlashadi. Demak, olmoshlar o'zining leksik-semantik hamda grammatik belgilaridan tashqari yana boshqa qator xususiyatlarga egaki, bu uni tildagi yangi bir yo'naliш asosida tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Olmosh so'z turkumiga xos so'zlarning eng xarakterli tomoni shundaki, garchi uning ma'no ifodalash qobig'i puch bo'lsa-da, biroq bu turkumdagи so'zlar mustaqil so'z sifatida boshqa mustaqil so'zlar qatoriga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi va mustaqil so'z tabiatiga tushadi. So'zlarni turkumlarga ajratish qoidalariga ko'ra, olmoshlar mustaqil holda savolga javob bo'ladi, o'zi alohida gap bo'lagi vazifasini bajaradi hamda mustaqil ravishda leksik ma'no ifoda etadi. Mana shu talablar olmoshlarni ham mustaqil so'zlar qatorida to'g'ri tasnif qilganini ko'rsatadi. Biroq olmosh turkumiga xos so'zning semantik tahlili nutq vaziyati bilan uzviy aloqador ekanini ko'rsatadi [Tursunov, 1965: 46]. Demak, nutq vaziyati bilan bog'landimi, bunday so'zlarni yangi tadqiq etish yo'naliшini belgilash va ularni tildagi lingvistik o'rnini ko'rsatishni shu kunning dolzarb vazifasi qilib qo'yadi.

Kishilik olmoshlari so'zlovchi – nutq subyekti, tinglovchi hamda uchinchi shaxs ma'nosini ifoda etuvchi maxsus so'zlardir. Bular olmoshlarga xos semantik ma'no deb yuritilgan. Olmoshga xos pragmatik ma'no "men" yoki "biz" shaklining "manmanlik" ma'nosida qo'llanishi bilan xarakterlanadi [Hakimov, 2013:34]. Jumladan: *Men o'qitgan juvonlarning hammasi ham kam bo'lgani yo'q! – dedi Huriniso kerilib. – Tojixonni kechki matabda o'qitganman!* (A. Qahhor) Bu matnlarda "manmanlik" ma'nosи "men" kishilik olmoshi vositasida bayon qilingan.

Ayrim o'rnlarda "men" o'rnida "biz" kishilik olmoshi qo'llanib kamtarlikni ifodalasa, ba'zi hollarda bu ma'no kinoya, kesatiq bilan almashadi hamda bayon qilingan ma'noning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi:

– *Butun bir ro'zg'orni ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan. Bizning jiyanimiz to'g'risida arzimaydigan masalani pardozlab kecha majlisga solganingiz menga uncha botmay turibdi. O'n bir yashar qiz bolani egov qilib,*



bizning obro'yimizni egovlamasangiz ham bo'lar edi. Bu to'g'rida maktab direktori, o'qituvchilar gapirsa, o'zimga olmas edim, nega desangiz mahmadonalik kasbi. (A.Qahhor)

"Sen", "siz" olmoshi kommunikativ vaziyat bilan bog'liq ravishda nutq subyekti hamda tinglovchi orasidagi yaqinlik, hurmat ma'nosini ifoda etadi: *Ertadan keyin... birinchi masala qilib sizning hisobingizni qo'ysak yaxshi bo'lar edi. – Mayli, – dedi Qalandarov mammun bo'lib, – Sen, sizlar shuncha ish qilganda, men besh-o'n minut javrab bersam nima qipti!* (A.Qahhor)

Ko'rsatish olmoshlari o'z nomi bilan shaxs predmet yoki belgini ko'rsatadi hamda matn qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'rsatish olmoshlari nutq vaziyati ta'sirida so'zlovchining tinglovchiga munosabatini ifoda etadi: *Odamlarning gap-so'zi, muomalasidan Saida bu yerga bir necha marta kelganini, bular orasiga kirishib ketganini payqab Qalandarovning g'ashi keldi. U kosani bo'shatib, yana yarim cho'mich so'radi: ikkinchi kosani ham ta'm olib, maqtab-maqtab ichar ekan, Saidani bu odamlarga begona toifadan qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi: Oshdan ichmadingiz-a... Bularning ovqati og'zingizga yoqmadidi..yoqmaydi!* (A.Qahhor)

"Shu" olmoshi nutq subyektini tinglovchiga bo'lgan qat'iy salbiy munosabati asosidagi kansitish ma'nosini ifoda etadi.

- *To'g'ri, lekin dehqonning mehnati boshqacha... dehqon yil-o'n ikki oy, qishin-yozin mehnat qiladi!* – dedi Qalandarov Saidani butkul nodonga chiqargan bir ohangda.

- *Qaysi fabrika, qaysi zavod yoki shaxta qish yoki yozda to'xtab qoladi, – dedi Saida. Qalandarovning da'vosiga qarshi bunday javob hech kimning esiga kelmagan bo'lsa kerak, hamma kulib yubordi va Saidaning gapini ma'qulladi. Qalandarov ichida o'zini so'kdi: "Shu mahmadona bilan so'z urushtirib nima obro' topar edim, nima keragi bor edi?"* – dedi... (A.Qahhor)

O'zlik olmoshi o'z so'zi bilan ifodalanim, bu so'zning ma'nosini ham nutq vaziyatida oydinlashadi. O'z so'ziga -lari qo'shimchasini qo'shib qo'llash bilan matnda piching, kesatiq ma'nolari bayon qilinadi. *Qalandarovning ro'y-rost achchig'i kelib, chakka tomirlari bo'rtdi. – O'zlar biladilar, – dedi qoshlarini chimirgan holda.*

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, olmoshlar tilning pragmatik jihatdan eng dinamik birliklaridan biri bo'lib, ular muloqotda ishoraviy, ko'rsatish va bog'lovchi vazifalarni bajaradi. Ularni o'rganishda kontekst va muloqot ishtirokchilari orasidagi munosabatlar asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun olmoshlarning pragmatik tahlili, ayniqsa ularni o'rgatishda, muhim amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, olmosh so'z turkumini o'rganish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistika asoslari. – Toshkent, 2013.
2. Hakimov M.O'zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. – Toshkent, 1993. 17–21-b.
3. Hozirgi zamон ozbek tili. Faxri Kamol taxriri ostida. – Toshkent, 1957. – 385-b.



4. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 1965.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QYPO1144

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI

Umarova Diafruz Razzakberdiyevna

*Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti
dilafruz.umarova@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3544-9962*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida onomastika – ya'ni atoqli otlarning o'r ganilishi, uning antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika kabi yo'nali shlari haqida so'z yuritiladi. Asosiy e'tibor o'zbek onomastikasining rivojlanish tarixi, ilmiy maktablari, metodologik asoslari va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy tahliliga qaratilgan. Shuningdek, maqolada turkiy xalqlarda umumiy onomastik motivlar va farqlanuvchi xususiyatlar ham ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda onomastik tadqiqotlarning dolzarb muammolari va istiqbollari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Onomastika, antroponimika, toponimika, turkiy tillar, nomlar semantikasi, o'zbek tilshunosligi, metodologiya.*

Abstract This article explores the study of onomastics in Uzbek linguistics, focusing on the classification and analysis of proper names such as personal names (anthroponyms), place names (toponyms), hydronyms, and ethnonyms. Special attention is given to the historical development of Uzbek onomastics, its scientific foundations, and comparative analysis with other Turkic languages. The paper also examines shared onomastic patterns among Turkic peoples as well as their unique cultural features. Current challenges and future directions in the field are discussed.

Key words: *onomastics, anthroponomy, toponomy, Turkic languages, semantics of names, Uzbek linguistics, methodology.*

O'zbek tilshunosligida *onomastika* – atoqli otlar (shaxs, joy, obyekt nomlari) bilan shug'ullanuvchi muhim bo'lim sanaladi. Uning asosiy yo'nali shlariga shaxs nomlarini o'r ganadigan antroponimika, joy nomlarini o'rganuvchi toponimika, xalq nomlarini o'rganuvchi etnonimika, shuningdek gidronimika (suv nomlari), zoonimika (hayvon nomlari), oronimika (tog'-tizmalarning nomlari) va hokazo kiradi [3]. Onomastika sohasida ma'lum bo'lgan barcha xususiy nomlar va atamalar tizimi onomastik leksikoda aks etadi. Bu fan tili va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xalqlar tarixi, etnosi, an'ana-urfi o'z ifodasini topadi. Masalan, o'zbek toponimikasida qadim savdo yo'llari, qadimiy aholi yashash joylari, folklor manbalaridagi voqealar aks etgani qayd etilgan [7; 37].

Har bir xalqning dunyoqarash manzarasida egalik nomlari (onimlar) muhim o'rin egallaydi. Ular o'z semantik tarkibida madaniy jihatdan qimmatli ma'lumotni saqlab qoladi, turli emotsional, estetik va baholovchi konnotatsiyalarga ega bo'ladi. "Agar shaxs mamlakatshunoslikka oid bilimlar, baholovchi assotsiatsiyalarni egallamagan bo'lsa, u nafaqat egalik nomlari



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Zaki Arslanovich Alibaev. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Akжолова Таңнұра Нұрбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdonna Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbanboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKİSTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мұхаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойышыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
E.M. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDА QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

